



jild. 3 No 2 (2026)

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



journals@timeedu.uz



+998 95 651 90 00

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT MENEJMENT VA IQTISODIYOT INSTITUTI



**“MUHANDISLIKDA SUN'IY INTELLEKT VA
RAQAMLI INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR”
MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**



FARG'ONA-2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT MENEJMENT VA IQTISODIYOT INSTITUTI

"MUHANDISLIKDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR:

ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR" MAVZUSIDAGI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

21 MAY 2026 YIL



МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН

ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ УПРАВЛЕНИЯ И ЭКОНОМИКИ

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ

«ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЦИФРОВЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В

ИНЖЕНЕРИИ: СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

21 МАЯ 2026 ГОДА



MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF

UZBEKISTAN

TASHKENT INSTITUTE OF MANAGEMENT AND ECONOMICS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE THEME "ARTIFICIAL

INTELLIGENCE AND DIGITAL INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENGINEERING: MODERN

SOLUTIONS AND PROSPECTS" 21 MAY 2026

“Muhandislikda sun’iy intellekt va raqamli innovatsion texnologiyalar: zamonaviy yechimlar va istiqbollar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar to‘plami. 2026-yil 21-may.

Ushbu to‘plamda – “Muhandislikda sun’iy intellekt va raqamli innovatsion texnologiyalar: zamonaviy yechimlar va istiqbollar” Xalqaro ilmiy –amaliy anjuman ishtirokchilarining tezislari keltirilgan. Anjuman kun tartibiga kiritilgan masalalar dolzarb bo‘lib, u yalpi ma‘ruzalar va amaliy zamonaviy muhandislik ta’limida raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt, muhandislik yechimlari va sanoat 4.0, robototexnika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish, ta’limda axborot va innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi, biznes jarayonlar va raqamli iqtisodiyotga axborot texnologiyalarining o‘rni kabi sho‘balardan tashkil topgan. To‘plam sohasi mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

Maqolalarda keltirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldir.

©Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar to‘plami



☎ +998 95 651 90 00

✉ journals@timeedu.uz

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 tmijournals.ndc-agency.uz

✈ TMII_ilmiy_bolim

Tahririyat jamoasi

BOSH MUHARRIR:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li

TAHRIR HAY'ATI

1. Sharipov Qo'ngratbay Avezimbetovich — O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, tfd, professor.
2. Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori, ifn, dotsent.
3. Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich — O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademiyasi, ifd, professor.
4. Xotamov Ibodullo Sadulloyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrası professori, ifn.
5. Sultonov Mansur Qilichovich — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi ekspertlar guruhi rahbari, tffd, dotsent.
6. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich — "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori.
7. Popkova Yelenadyevna — Rossiya Gen "Ilmiy aloqalar instituti" avtonom notijorat tashkiloti prezidenti, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
8. Dr Go Khang Ven — Malayziyaning INTI xalqaro universiteti prorektori.
9. Wang Cheng — XXR "Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology" instituti iffd, dotsent.
10. Xakimova Nilufar Karimkulovna — O'zMU huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti PhD, ilmiy xodimi.
11. Yo'ldoshev Nuriddin Qurbonovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Biznes boshqaruvi va moliya kafedrası ifd, professor.
12. Chariyev Qurbon Amirovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrası professori, ifd.
13. Abduraimova Nigora Radjabovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, iffd.
14. Anarqulova Gulnaz Mirzaxmatovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası professori, ifn.
15. Yakubov Sadirjan Bakiyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası professori, ifn.
16. Kadirova Istora Bobirovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Karyera markazi direktori, iffd, dotsent.
17. Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti, iffd, dotsent.
18. Mamatov Narzullo Solidjonovich — "TIQXMMI" MTU kafedra mudiri, texnika fanlari doktori, professor.
19. Turaqulov Otabek Xolmirzayevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası mudiri, tffd, dotsent.
20. Toirov Shuxrat Abduganiyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası professori vb, tffd.
21. Yusupov Rustam Abdimuratovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, tffd.
22. Nazarov Xolmo'min Abduxobovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, fmf.
23. Asrayev Muhammadmullo Abdulla o'g'li — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, tffd.
24. Yunusova Shaxnoza Muxamedumarovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsenti, fffd.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA "YASHIL" IQTISODIYOTNING STRATEGIK YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI.

Primov S.

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti PhD, katta o'qituvchi

Shakirov X.

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va keskin iqlim o'zgarishlari fonida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muqobil paradigmasi — "yashil" iqtisodiyot va uning raqamli texnologiyalar bilan o'zaro sinergetik integratsiyasi tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida raqamlashtirish mexanizmlarining energiya samaradorligini oshirish, resurs tejamlorligi hamda ekologik barqarorlikka ta'siri institutsional va empirik yondashuvlar asosida o'rganildi. Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining texnologik modernizatsiyasi doirasida "raqamli egizaklar" (Digital Twins), sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish bo'yicha kompleks amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Asosiy xulosalar makroiqtisodiy siyosatni shakllantirishda ekologik va raqamli omillarni yaxlit tizim sifatida ko'rish zaruriyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish, innovatsion texnologiyalar, energiya samaradorligi, sirkulyar iqtisodiyot, dekarbonizatsiya, raqamli egizaklar, sinergetik samara.

Abstract: This article presents a systematic analysis of an alternative paradigm for ensuring economic growth amid globalization and rapid climate change — the "green" economy and its mutually synergistic integration with digital technologies. In the course of the research, the impact of digitalization mechanisms on increasing energy efficiency, resource conservation, and ecological sustainability was studied using institutional and empirical approaches. The article develops comprehensive practical proposals for the implementation of "Digital Twins," artificial intelligence, and blockchain technologies within the framework of technological modernization of Uzbekistan's economy. The main conclusions provide a scientific justification for the need to view ecological and digital factors as an integrated system in the formation of macroeconomic policy.

Keywords: Green economy, digital transformation, sustainable development, innovative technologies, energy efficiency, circular economy, decarbonization, digital twins, synergistic effect.

Аннотация: В данной статье проведён системный анализ альтернативной парадигмы обеспечения экономического роста в условиях

глобализации и резких изменений климата — «зелёной» экономики и её синергетической интеграции с цифровыми технологиями. В ходе исследования на основе институционального и эмпирического подходов изучено влияние механизмов цифровизации на повышение энергоэффективности, ресурсосбережения и экологической устойчивости. В статье разработаны комплексные практические предложения по внедрению технологий «цифровых двойников» (Digital Twins), искусственного интеллекта и блокчейна в рамках технологической модернизации экономики Узбекистана. Основные выводы научно обосновывают необходимость рассматривать экологические и цифровые факторы как единую целостную систему при формировании макроэкономической политики.

Ключевые слова: зелёная экономика, цифровая трансформация, устойчивое развитие, инновационные технологии, энергоэффективность, циркулярная экономика, декарбонизация, цифровые двойники, синергетический эффект.

KIRISH

Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotining bugungi bosqichida insoniyat bir vaqtning o'zida ikkita fundamental o'zgarish — To'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) va global ekologik inqirozning bevosita ta'siri ostida yashamoqda. An'anaviy, qazib oluvchi tarmoqlarga asoslangan "jigarrang" iqtisodiy model o'zining kelajagi yo'qligini namoyon qilib ulgurdi [1, 45-b.]. Bunga javoban shakllangan "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi esa qisqa vaqt ichida resurslarni boshqarishning raqamli vositalari bilan uyg'unlashib, yangi — "Raqamli-Yashil" (Digital-Green) transformatsiya bosqichiga qadam qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasining strategik xujjatlarida, xususan iqtisodiyot tarmoqlarini yashillashtirish dasturlarida yalpi ichki mahsulot (YaIM) energiya sig'imini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini keskin oshirish ustuvor vazifalar etib belgilangan [2, 12-b.]. Biroq, amaliyotda raqamlashtirish va ekologik barqarorlik dasturlari aksariyat hollarda bir-biridan mustaqil, parallel ravishda olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi — mazkur ikki yo'nalish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni nazariy-metodologik jihatdan ochib berish va O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ularning sinergetik samaradorligini ta'minlovchi modellarni taklif etishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

"Yashil iqtisodiyot" va "raqamli transformatsiya" tushunchalarining nazariy asoslari jahon iqtisodiyoti va milliy ilmiy maktablar vakillari tomonidan turlicha yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlar yondashuvi: Yashil iqtisodiyotning tayanch tamoyillari ilk bor D. Pirs (D. Pearce) va E. Barbier asarlarida "tabiiy kapital" tushunchasi orqali kiritilgan bo'lsa [3, 88-b.], K. Shvab (K. Schwab) o'zining To'rtinchi sanoat inqilobiga doir tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar ekologik inqirozni yumshatuvchi asosiy drayver ekanligini ta'kidlaydi [4, 112-b.]. Xususan, Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ekspertlari "Twin Transitions" (Qo'shaloq o'tish — yashil va raqamli) konsepsiyasini ilgari surib, rivojlangan davlatlar tajribasida aqlli tarmoqlar (Smart Grids) va yashil moliya (Green Finance) tizimlarining muvaffaqiyatini empirik tarzda asoslab berishgan [5, 34-b.].

Mahalliy olimlar yondashuvi: O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar (A.V. Vahobov, Q.X. Abdurahmonov, B.T. Salimov va boshqalar) asarlarida asosan mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, qishloq xo'jaligida suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash sharoitida ekologik omillarning o'rni keng yoritilgan [6, 56-b.]. Mahalliy tadqiqotlarning aksariyati institutsional o'zgarishlar va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlariga urg'u beradi.

Yondashuvlarni taqqoslash va tadqiqotning ilmiy yangiligi: Xorijiy olimlar ko'proq yuqori texnologik infratuzilma (AI, IoT) va katta ma'lumotlar tahlilining bevosita ekologik natijalariga e'tibor qaratsa, mahalliy adabiyotlarda modernizatsiya jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar va moliyaviy resurslar taqchilligi muammosi ustuvorlik qiladi. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda an'anaviy iqtisodiy modellardan farqli o'laroq, rivojlanayotgan davlatlar sharoitida "raqamli tafovut" (digital divide) va "ekologik o'tish" muammolarini yagona "Raqamli ekotizim" platformasi orqali sinxron hal etish modeli taklif qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.


Tadqiqotda tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellash, qiyosiy tahlil va prognozlashtirish usullaridan foydalanildi. Raqamli transformatsiya sharoitida yashil iqtisodiyot asosan innovatsion ustunlarga tayanadi. Sun'iy intellekt (AI) va Big Data sanoat korxonalarida energiya sarfini optimallashtirish, xomashyo yo'qotishlarini minimallashtirish uchun prognozli tahlillarni amalga oshiradi. Narsalar interneti (IoT) esa real vaqt rejimida emissiyalarni monitoring qilish imkonini beradi.

TAHLIL VA MUHOKAMA.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, faqatgina ekologik standartlarga o'tish amaliyotda iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin. Shuning uchun muqobil yondashuvlarni taqqoslash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi

1-grafikda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali kutilayotgan tejamkorlik salohiyati aks ettirilgan.

1-grafik. Tarmoqlar bo'yicha kutilayotgan energiya va resurs tejamkorligi ustunli diagrammasi.



Ushbu ko'rsatkichlarning mantiqiy davomi sifatida jadvalni keltirish maqsadga muvofiqdir. 1-jadvalda empirik ma'lumotlar va ekspert xulosalariga asoslangan holda tarmoqlar kesimidagi statistik o'zgarishlar berilgan.


1-jadval. O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali kutilayotgan samaradorlik (Statistik ma'lumotlar)

Iqtisodiyot tarmog'i	Asosiy raqamli texnologiya	Energiya tejamkorligi (%)	CO2 qisqarishi (%)
Energetika tizimi	Smart Grid, AI tahlili	15 - 20	18 - 22
Sanoat korxonalari	Digital Twins, IoT	10 - 15	12 - 16
Qishloq xo'jaligi	Agrotex IoT, Dronlar	25 - 30	8 - 10
Logistika	AI marshrutizatsiya	12 - 18	20 - 25

Yuqoridagi tarmoqlarni modernizatsiya qilish katta hajmdagi kapital qo'yimlarni talab etadi. 2-grafikda yashil-raqamli loyihalarga kiritilayotgan investitsiyalarning ustuvor taqsimlanishi doiraviy diagrammada ko'rsatilgan.

2-grafik. Yashil-raqamli investitsiyalarning ustuvor taqsimlanishi doiraviy diagrammasi.

Yashil-raqamli investitsiyalarning ustuvor taqsimlanishi



2-jadval. An'anaviy va innovatsion (raqamli-yashil) iqtisodiy modellarning taqqoslama tahlili

Tahlil mezonlari	An'anaviy / Sanoat iqtisodiyoti	Sinergetik (Raqamli-Yashil) model
Resurslardan foydalanish	Chiziqli (olish-ishlatish-tashlash)	Yopiq sikl (sirkulyar), raqamli monitoring
Samaradorlikni baholash	Faqat moliyaviy foyda (YaIM o'sishi)	Kompleks (ESG standartlari + Big Data)
Qaror qabul qilish	Reaktiv (muammo yuz bergach)	Proaktiv (AI orqali oldindan aniqlash)

Taqqoslama tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, raqamlashtirish qat'iy ekologik talablar sababli yuzaga keladigan xarajatlarni minimallashtiruvchi "amortizator" vazifasini o'taydi. Bu bevosita samaradorlik ko'rsatkichlarida ham o'z aksini topadi.

3-jadval. Raqamli-yashil investitsiya loyihalarining xulosa va samaradorlik ko'rsatkichlari

Investitsiya yo'nalishi	Kapital sarfi	Qoplash muddati (ROI)	Ekologik barqarorlik darajasi
Energomenejment	O'rta	1.5 - 2 yil	Yuqori (Energiya

(IoT)			isrofi yo'qoladi)
To'liq "Smart" zavod	Juda yuqori	5 - 7 yil	Absolyut (Nol emissiya ehtimoli)
Blokcheyn ta'minot zanjiri	Nisbatan past	1 yilgacha	Bilvosita (Yashil xomashyo)

Raqamlashtirish darajasining oshishi bilan bevosita ekologik holatning yaxshilanishi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni 3-grafikda ko'rishimiz mumkin. Chiziqli grafik O'zbekiston sharoitida o'n yillik prognozni ifodalaydi.

XULOSA VA AMALIY TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot, tahlil qilingan mahalliy va xorijiy adabiyotlar hamda tuzilgan modellar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng maqbul yo'li — iqtisodiyotni bir vaqtning o'zida karbonsizlashtirish (dekarbonizatsiya) hamda chuqur raqamlashtirishdir. Jarayonlarni alohida ko'rish moliyaviy resurslarning samarasiz sarflanishiga olib keladi.

Mazkur yo'nalishdagi muammolarni bartaraf etish va jarayonni jadallashtirish maqsadida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Institutsional integratsiya: Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi hamkorligida yagona "Yashil Raqamli O'zbekiston" idoralararo platformasini yaratish. Bu platforma barcha yashil investitsion loyihalarning raqamli monitoringini ta'minlaydi.
2. "Yashil-raqamli" soliq imtiyozlari: O'z ishlab chiqarishiga resurs tejovchi IoT texnologiyalari va AI-menejment tizimlarini joriy etgan korxonalar uchun mulk va foyda soliqlaridan tabaqalashtirilgan chegirmalar (tax incentives) mexanizmini qo'llash.
3. Infratuzilmaviy modernizatsiya: Yirik sanoat zonalari negizida hududiy "Yashil raqamli xablar" (Green Digital Hubs) tashkil etish va ularni 100% qayta tiklanuvchi energiya hisobidan ta'minlash.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, raqamli transformatsiya vositalari yashil iqtisodiyotga o'tishni shunchaki tezlashtirmaydi, balki ushbu o'tishning iqtisodiy jihatdan rentabelli va jozibador bo'lishini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida. PF-158-son, 11.09.2023.
- [2] Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Yashil iqtisodiyot: darslik. – T.: "Iqtisodiyot", 2021. – 280 b.
- [3] Pearce, D. W., Markandya, A., & Barbier, E. Blueprint for a Green Economy. Earthscan Publications, London, 1989. – 192 p.

- [4] Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. Crown Business, New York, 2017. – 184 p.
- [5] World Bank. The Twin Transitions: Climate and Digital Development in Emerging Markets. Washington, DC: World Bank, 2023. – 145 p.
- [6] Salimov, B.T., Mukhsinova, Sh. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida yashil texnologiyalarning o'rni. "Iqtisodiyot va Ta'lim" jurnali, 4(2), 2022. – 45-52 b.
- [7] OECD. Digitalisation for the Transition to a Resource Efficient and Circular Economy. OECD Publishing, Paris, 2024. – 110 p.
- [8] Tapscott, D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. McGraw-Hill, 1996. – 342 p.

MUNDARIJA		
1-SHO'BA: ZAMONAVIY MUHANDISLIK TA'LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT		6
<i>Turakulov O Asrayev M Karimov E</i>	QISHLOQ VRACHLIK PUNKTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING RO'LI	6
<i>G'oipova Kh</i>	VOICE ANALYSIS TECHNOLOGIES SPECIAL ALGORITHMS AND ARTIFICIAL INTELLECT MODELS	11
<i>G'oipova Kh</i>	SECURITY MECHANISMS BASED ON VOICE AND VIDEO SYNTHESIS	17
<i>Sh.A.Toirov, T.E.Xudoyqulov</i>	METHODS AND SOLUTIONS FOR GENERALIZING AMPLITUDE AMPLIFICATION IN QUANTUM ALGORITHMS	23
<i>Rizayev X</i>	MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA AUTOCAD DASTURIDAN BIM TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN REVIT DASTURIGA O'TISHNING DIDAKTIK AFZALLIKLARI	27
<i>Turakulova Sh</i>	KO'Z TUBI TASVIRLARIDA QON TOMIR TARMOQLARINING DIAMETRI, EGRI-BUGRILIGI VA TARMOQLANISH BURCHAKLARI ASOSIDA DIAGNOSTIK TAHLIL	34
<i>Turakulov O, Jumaboyev D</i>	IJTIMOIIY TARMOQ YOZISHMALARIDAGI HISSIYOTLARNI TAHLILLASH MODELII	45
<i>X.T. Dusanov</i>	SUN'IY INTELLEKT ALGORITMLARI ASOSIDA TASVIRLAR SIFATINI OSHIRISH	49
<i>Yusupov R.A.</i>	YER OSTI SUVLARI GIDROSFERASI HARAKATINI SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MODELLASHTIRISH	56
<i>Erhanova N</i>	BOLALARNING NUTQINI O'STIRISH ORQALI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH	64
<i>S.A. Olimov</i>	TA'LIM TIZIMIGA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH JIHATLARI	70
<i>Shadmanov S</i>	SUN'IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	77
2-SHO'BA: MUHANDISLIK YECHIMLARI VA SANOAT 4.0		82
<i>Норматов Ш, Туражонов К,</i>	МЕТОД ОЦЕНКИ УСТОЙЧИВОСТИ ОТКОСОВ И УСТУПОВ КАРЬЕРА	82

Логинов П, Акбаров Н		
Егорова В.В.	ЖИВУЧЕСТЬ И ТЕХНИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ КОНСТРУКЦИЙ КАРКАСА ЗДАНИЯ В РЕЗУЛЬТАТЕ ОСОБОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ	89
Ochilova I	O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA GENDER TENGLIK INDIKATORLARINI RAQAMLI MONITORING QILISH MEXANIZMLARI	104
Axmedov X, Sharipov K	KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA ZAMONAVIY TAHLIL METODLARINING AHAMIYATI	109
Khidirova D	TOWARDS TRUSTWORTHY WILDFIRE DETECTION: INTEGRATING EXPLAINABILITY AND UNCERTAINTY IN DEEP LEARNING MODELS	113
Axmedov X, Sharipov K	RAQOBAT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH ASOSIDA KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	120
Narbayev Sh, Abduqayumov A	DAVLAT KORXONALARIDA ESG STANDARTLARI ASOSIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	126
Omonturdiyev O	SIFATLI NOTO'QIMA MATO OLISH UCHUN JUN TOLASINI CHO'TKALI BARABAN ORQALI SAMARALI TOZALASH VA UZATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI	132
Rashidov J.X., Kaipov A. K	IQTISODIY MODERNIZATSIYA JARAYONIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	143
Rashidov J.X., Kaipov A. K	IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA VA DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONIDA KORXONALARDAGI MOLIVAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	147
Kadirjanova M	KORXONALARDA INNOVATSION RIVOJLANISHNI BOSHQARISH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	158
Kadirjanova M	KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.	166

<i>R.M. Tursunova, M.E. Tursunov, G. Abduraxmanov, A.T. Dexqonov, Sh.M. Norbekov, D.R. Jumaboyev</i>	LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHASIDA SIZIB O'TISH BUSAG'ASIGA TEXNOLOGIK OMILLAR TA'SIRI	173
3-SHO'BA: ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARI		179
<i>Asrayev M, Tursunaliyeva O</i>	HTTP GET ORQALI SERVERGA ULANISH.	179
<i>M.E. Tursunov, Sh.M. Norbekov</i>	AVTOMOBILLAR UCHUN PELTIER EFFEKTI ASOSIDAGI MINI AQLLI SUV SOVITISH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TADQIQ ETISH	188
<i>Yakubov S, Xasanova Sh.</i>	ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARINING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI INTELLEKT	194
4-SHO'BA: KIBERXAVFSIZLIK VA MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH		201
<i>Sh.A.Toirov, A.A.Seytnazarova, T.E.Xudoyqulov</i>	OPTIMIZING GLOBAL SEARCH PROBLEMS USING GROVER'S QUANTUM ALGORITHM	201
<i>Toshpo'latov Sh</i>	VEB-ILOVALARDA HTTP XAVFSIZLIK SARLAVHALARINI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	209
<i>Очилов Н, Набиев С</i>	АНАЛИЗ АРХИТЕКТУРНОГО СЛОЯ ИСТОЧНИКОВ ДАННЫХ DLP-СИСТЕМ ДЛЯ ГИБРИДНЫХ КОРПОРАТИВНЫХ СРЕД	215
<i>Toirov Sh, Asrayev M, Yo'ldoshaliyeva G</i>	KIBERHUJUM VA UNGA QARSHI KURASH	225
<i>Karabayev R.</i>	O'ZBEKISTONDA KIBERXAVFSIZLIK HOLATINI BAHOLASH VA KIBERXAVFLARNING STATISTIK TAHLILI	229

5-SHO'BA: TA'LIMDA AXBOROT VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI		237
<i>Suyunov Y, Nazarov U</i>	RAQAMLI TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA MOLIVAVIY NAZORATINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI	237
<i>Gulyamova Sh</i>	THE NEW SETUP IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING (ELT): THE INTEGRATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND STANDARD CLASSES	247
<i>Xashimov A, Mamatov A</i>	KADRLARNI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH UCHUN ELEKTRON BAHOLASH TIZIMLARI TAHLILI	252
<i>Mirzaev R.</i>	MATERIALLARNI ME'YORLASHTIRISH JARAYONIDA DATA ANALITIKA VA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI	264
<i>Xaydarov S</i>	TALABALARNI TARBIYALASHDA JISMONIY VA MA'NAVIY BARKAMOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARIDA AXBOROT VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI	269
<i>Anarkulova G, Mamajonova R.</i>	OLIY TA'LIMDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	278
<i>Sherova D.</i>	OLIY TA'LIMDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI	284
<i>Mukhamadiyev A, Sh.A.Toirov</i>	OPTIMIZING EDUCATIONAL PROCESSES WITH GENERATIVE AI: INNOVATIVE INSTRUCTIONAL DESIGN AND AUTOMATED ASSESSMENT TOOLS	290
<i>Xoshimova M.</i>	AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA KONFLIKTOLOGIK	301

	KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	
<i>Olamova M.</i>	PEDAGOGIK LOYIHALASHDA TALABALARDA AXBOROT-KONSTRUKTIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI	306
<i>Mamadaliyev N.</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA “MA’LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORITMLAR” FANINING DASTURIY TA’MINOTINI PEDAGOGIK QO’LLASH METODIKASI	311
<i>G’aniyeva M. Yunusova I</i>	BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTI (ESG) – KORXONALARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY AUDITI SIFATIDA	315
<i>Juraboyeva Sh.</i>	TA’LIM VA BIZNES INTEGRATSIYASIDA RAQAMLI PLATFORMALARNING AHAMIYATI.	320
<i>Anvarov D.</i>	O’ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINI O’QITISHDA AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO’LLANILISHI: METODOLOGIK TAHLIL VA SAMARADORLIK	326
<i>Usmonova M.</i>	TELEFONGA TOBELIK – NOMOFOBIYA: ZAMONAVIY DAVRNING PSIXOLOGIK ILLATLARI.	331
<i>Jo’rayeva N</i>	KORXONALARDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH: CRAFERS SHIRINLIKLAR KORXONASI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT	340
<i>A. M. Романова, С.А. Олимов</i>	ЗНАЧЕНИЕ СЕТЕВОЙ ФОРМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ УВО ДЛЯ ИНЖЕНЕРНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ	349
<i>Suyunova N</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH	354
<i>Уснитдинов М</i>	РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА).	361

6-SHO'BA: BIZNES JARAYONLAR VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI.		368
<i>Axmedov X.D, Kamalov Sh.F</i>	SANOAT KORXONALARIDA OPTIMAL XARAJATLAR STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI	368
<i>Sodiqov M</i>	TOVARLAR VA XIZMATLARNI KENG TABAQUALASHTIRISH YO'NALISHLARI	381
<i>R.B.Mirzayev</i>	REKLAMA TIZIMI VA SOTUV JARAYONINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI.	388
<i>Primov S, Akramov J</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	392
<i>Karabayev R.</i>	ИСККУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА	401
<i>Абдураимова Н, Зоҳидов А</i>	ПУТИ ДОСТИЖЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЗА СЧЁТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СЕТЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	407
<i>М.Асраев, Ш.Акбаров</i>	ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ФУНДАМЕНТ КОМПОЗИТНОГО БИЗНЕСА	417
<i>Abduraimova N, Zohidov A</i>	BARQAROR TARMOQLARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI BAHOLASHNING DOLZARB MODELLARI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	422
<i>Samatov A, Turdibekova S.</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLIGYALARNI JORIY QILISHNING SAMARADORLIGI.	430
<i>Samatov A, Turdibekova S.</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUV ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY MODELLARI TAHLIL QILISH	435
<i>Toxirov J.</i>	EKOLOGIK STANDARTLAR JORIY ETILISHIDA BUYRUQBOZLIK VA BOZOR MEKANIZMLARINING TA'SIRI	440

<i>Maxmudov J.</i>	O'ZBEKISTONNING "TASHQI QARZ ORQALI RIVOJLANISH STRATEGIYASI"	450
<i>Shoyev D, Abdullayeva G.</i>	BOSHQARUV SIFATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	459
<i>Daminova O', Pulatov Sh.</i>	QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARINING IQTISODIY MOHIYATI, TASNIFI VA FAOLIYAT XUSUSIYATLARI	467
<i>Daminova O', Pulatov Sh.</i>	QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORLARGA OLIB CHIQISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	471
<i>Narbayev Sh.K. Nabixonov S.</i>	BIZNES ETIKASIDAN KORPORATIV MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA FOYDALANISH	480
<i>Muydinov N</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA IT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI	487
<i>Primov S, Shakirov X.</i>	DAVLAT TASHQI QARZI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	491
<i>Primov S, Shakirov X</i>	RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA "YASHIL" IQTISODIYOTNING STRATEGIK YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI.	498
<i>Bozorov J</i>	MEHNAT MIGRATSIYASINI KAMAYTIRISHDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY AHAMIYATI	505
<i>Mamajonov A</i>	STARTAPLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZLARI FAOLIYATI: JAHON TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	511
<i>Samatov A, Kushbakov B</i>	KORXONANING IQTISODIY SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONLARI	516
<i>X.D.Axmedov, Kamalov.Sh</i>	KORXONADA TEXNIKAVIY VA MEHNAT RESURLARINI BOSHQARISH TAHLILI	521
<i>Karabayev R</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT: NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	527
<i>Туракулов О, Асраев М,</i>	ЛУЧШИЕ РЕШЕНИЯ ДЛЯ ОПТИМИЗАЦИИ ЛОГИСТИКИ	532

<i>Мирзаева О.</i>		
<i>Алимов О</i>	ФОРСИРОВАННАЯ ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИЯ БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ИИ-ПОДХОД ДЛЯ ЭКСПАНСИИ НА ВНЕШНИЕ РЫНКИ	543
<i>Nazarov X</i>	OCHIQ BANK (OPEN BANKING) FAOLIYATINING XALQARO TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA QO'LLANILISHI	551
<i>Narbayev Sh.K, Nabixonov S</i>	ISHBILARMONLIK ETIKASINI RIVOJLANTIRISHNI KORPORATIV MADANIYATGA TA'SIRI	560
<i>R.B.Mirzayev</i>	TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SOLIQ HUQUQI MADANIYATINING AHAMIYATI	572
<i>Narbayev Sh.K, Axmadaliyev V.A.</i>	QISHLOQ XO'JALIGI YERLARI MONITORINGINI YURITISHDA MASOFADAN ZONDLASH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	580
<i>Soliyev D</i>	SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH: AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI	590
<i>Samatov A, Allanov U</i>	SIFAT MENEJMENT TIZIMIDA NOMUVOFIQLIKLARNI ANIQLASH USULLARI	597
<i>Narbayev Sh, Abdufattoxova H</i>	MENEJMENT FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKTNING INNOVATSION YECHIMLARI	600
<i>Narbayev Sh.K, Abduqayumov A</i>	KORXONALARDA ESG (Environmental, Social, Governance) KO'RSATKICHLARINI JORIY ETISHDA MENEJMENTNING ROLI	605
<i>Primov S, Akramov J</i>	DAVLAT MOLIVASINING BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ASOSIY MUAMMOLARI VA BARTARAF ETISH YO'LLARI	611

Ingliz tili muharriri: Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114